



AJER
AKADEMIC JOURNAL OF
EDUCATIONAL RESEARCH

ISSUE 4

**AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

May - June 2024

WWW.AJERUZ.COM

BOSHLANG'ICH TA'LIMNING AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARI

Inoyatova Feruza Jasur qizi

CHDPU, Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqola AKTdan foydalanilganda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ish haqida batafsil ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'z: Internet, AKT, Axborot texnologiya, kompyuter

Boshlang'ich ta'lim jarayonida shunday o'qitish metodlarini tatbiq etish joizki, ular natijasida o'quvchilarni mustaqil o'qish, fikrlashga, axborotlar bilan ijodiy ishlashga o'rgatsin, o'quvchilarni o'ziga xos fikrlashga yo'llasin, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirsin, o'qishga, mustaqil bilim olishga qiziqishini oshirsin, o'z ish faoliyatiga tanqidiy yondashishni tarbiyalasin, o'zgaruvchan ishlab chiqarish sharoitiga tez moslashish ko'nikmalarini shakllantirsin. Boshlang'ich ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalari bilim olish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Ilmiy tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchilarning xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishning asosiy shartlari: zamonaviy ta'lim usullaridan bo'lgan ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, eng so'nggi ta'lim vositalarini qo'llash hamda

ushbu jarayon samaradorligini oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yuqori metodik kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlashdan iborat.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad – aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim – ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga kata mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab «ko'nikmalar maktabi» bo'lib keldi, ya'ni keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan.

Bugungi kunda esa u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi - ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. AKTdan foydalanilganda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmalimashq, nazorat mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unda fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun 3ta variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

AKTdan foydalanish yillari davomida 1-sinfdan 3-sinfgacha matematika, o'qish, ona tili, deyarli barcha mavzulari va boshqa o'quv fanlari bo'yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Endi darslarda faqat bosma shakldagi emas, balki kompyuterli testlardan foydalanish zarur. Ular bajarib bo'lishi bilan darhol bahosini olishga imkon beradi, bahoni kompyuterning o'zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi.

Maktabda mavjud bo'lgan Internet tarmog'i ishimizda katta yordam ko'rsatadi. Internet – bu global axborot tizimi ekanligi barchaga ma'lum. U elektron pochta, izlash tizimlarini o'z ichiga oladi va turli axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Undan kerakli axborotlarni topish, qayta ishlab chiqish va ularni ko'paytirib, barcha kompyuterlarga o'rnatib bolalarga mustaqil juftlikda, guruhda, individual ishlashni taklif etish mumkin. O'quvchilarga turli xildagi topshiriqlarni taklif etish: tadqiqot o'tkazish, asosiysini tanlash, taqdimot tayyorlash, jadvalni to'ldirish imkoni paydo bo'ladi.

Axborot olishning boshqa bir usuli – dars davomida bevosita Internetdan axborot olish hisoblanadi. Internetdan avvaldan kerakli materialni topish, darsda esa uni o'quvchilarga ko'rsatish mumkin. Ishni o'rganilgan material bo'yicha dialog ko'rinishida olib borish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari Internetdan mustaqil foydalanishni, kerakli axborotni tanlashni, uni saqlab qolish va taqdimotlar tuzish yoki turli xildagi loyihalarni ishlab chiqish va bajarishda keyingi ishlarida foydalanishni biladilar. 2-sinfdanoq o'quvchilar faqat daftarda emas, balki bevosita kompyuterda ham topshiriqlarni bajara oladilar. O'quvchilar kompyuter bilan ishlash birinchi ko'nikmalarni oladilar, o'zlarining nazariy bilimlarini doimiy chuqurlashtirib va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirib boradilar. Boshlang'ich sinflarda fikrlash operatsion uslubini shakllantirishda informatika kursining roli juda muhim. Informatikaning ushbu roli harakatlari tuzilishini rejalashtirish, axborot izlash, muloqotni rejalashtirish, axborot modellarini qurish, faoliyatni vositalashtirish kabi dastlabki ko'nikma va malakalar to'plami ko'rinishida qaraladi. Kompyuterni

o'qishda yordamchisi, ijodkorlik, o'zini ifoda etish va rivojlantirish vositasi sifatida tushunish katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich maktabda kompyuterni o'zlashtirib o'quvchilar undan o'z faoliyatlari vositasi sifatida boshqa sinflarda ham foydalanishlari mumkin, kompyuterni qo'llash bilan olib boriladigan darslar ularda qiyinchilik tug'dirmaydi.

Axborot texnologiyalarining o'qituvchi va o'quvchi uchun ahamiyatli jihatlari quyidagilar:

- ✓ o'quvchining diqqatini jamlash;
- ✓ ma'lumot to'g'risidagi tasavvurni kengaytirish;
- ✓ izlanuvchanlik, ijodkorlik va mustaqil faoliyatga kirishish;
- ✓ o'z-o'zini baholash.

O'qituvchi faoliyatida axborot texnologiyalardan foydalangan holdagi darslarning o'rni quyidagilarda aks etadi:

- ✓ vaqtni to'g'ri taqsimlash;
- ✓ o'quv materialini mazmun-mohiyatining yorqin va ishonarli bo'lishini ta'minlash
- ✓ berilayotgan axborot ko'lamini oshirish;
- ✓ o'quv topshirig'ining turlarini kengaytirish;
- ✓ sog'lom raqobat, ijodiy muhitni yuzaga keltirish;
- ✓ kasbiy malakani muntazam oshirib borish.

Boshlang'ich ta'limni axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishari zamonaviy telekommunikatsiya vositalari va tarmoqli axborot texnologiyalaridan foydalanishni bildiradi. Bunday vositalarni qo'llashda umumta'lim maktabi va oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonining samaraliligini oshirish uchun yangi imkoniyat ochib beradi. Kompyuter o'quv manbaalarini kengaytirib beradi, ya'ni turli multimediali darsliklar, elektron kitoblar va boshqalaridan foydalanish imkoniyati keng tarqalmoqda. Shularni inobatga olgan holda bugungi kunda axborot texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ta'lim tizimiga yangi talablarni

qo'yadi, shu bilan bir qatorda boshlang'ich sinflardagi ta'limda ham ta'lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta'lim muassasasidan ta'lim faoliyati muhitining axborotlashtirishini talab qiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida ishlab chiqilgan "2008-2012 yillarda uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish" dasturida ham ta'lim muassasalarida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish masalalari belgilangan vazifalar sifatida ta'kidlangan. Ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish-axborotlashgan ta'lim multimedia vositalari yordamida tashkil etilgan ta'lim tizimini maydonga olib chiqdi. Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimidagi, o'quv - tarbiya ishlari sohasidagi muammolarni izchillik bilan, bosqichma-bosqich xal etish yo'llari va vositalari yuqorida tilga olingan davlat hujjatlarida belgilab berilgan.

Axborot-kommunikasion texnologiyalardan foydalanish boshlang'ich ta'lim jarayonini yangi sifat va miqdoriy ko'rsatkichlariga erishish, boshqarish jarayonini tezlashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish natijasida ta'lim tamoyillari, mohiyati o'zgaradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. O'qituvchi tomonidan targ'ib etilayotgan ta'lim va tarbiya tizimi shaxsga yo'naltirilgan xarakterga ega bo'lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyatlari va sifatiga e'tibor qilgan holda tadbiiq etilayotgan ta'lim sifatiga e'tibor qilgan holda tabaqalashtirilgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduraimova G.O. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Texnologiya" fanini o'qitishga tayyorlash yo'llari va vositalari. // Pedagogika. – Toshkent, 2019. – №1. – B. 20 – 28.
2. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya: Ucheb. posobiye dlya stud. vuzov. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 1997. – 704 s.

3. Avazboyev A.I. O‘quv predmetlarini mazmunini integratsiyalash asosida mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.–T.: -2001. – 124 b.
4. Qodirov X.SH. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash metodikasini takomillashtirish: Ped.fan.bo‘yicha f.f.d.(PhD). ... diss. – T., 2017. – 146 b.
5. Mamadov N.S. Umumiy ta’lim maktablarini innovatsion boshqarish: Ped.fan.nom.diss. – T.. 2009. – 152 b.



AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
international scientific journal
4-son

Nashr qilingan sana: 29.06.2024.
Shrift: "Times New Roman".

“ACADEMIC JOURNAL” MCHJ
Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172